

## Sezgi turlari

Yuzaki, chuqur va murakkab sezgi turlari farqlanadi. *Yuzaki sezgiga* kiruvchi og'riq, harorat va taktil sezgilar eksteroretseptorlar orqali qabul qilinadi. *Chuqur sezgiga* kiruvchi mushak-bo'g'im, vibratsiya, kinestetik, tana qismlarining fazodagi holati, bosim va og'irlik sezgilari proprioretseptorlar orqali qabul qilinadi.

*Murakkab sezgi*, ya'ni stereognoz, lokalizatsiya, diskriminatsiya va teriga chizilgan figuralarni aniqlash sezgilari turli tipdagi retseptorlarning hamkorlikda ta'sirlanishi va po'stloqdagi gnostik markazlar faoliyati tufayli ta'minlanadi.

### Sezgi turlari

Yuzaki sezgi turlari	Chuqur sezgi turlari	Murakkab sezgi turlari
Og'riq	Passiv harakatlar (mushak-bo'g'im)	Stereognoz
Harorat	Vibratsiya	Lokalizatsiya
Taktil	Kinestetik	Diskriminatsiya
	Tana qismlarining fazodagi holatini sezish	Teriga chizilgan figuralarni aniqlash
	Bosim va og'irlik sezgisi	

Retseptorlar orqali qabul qilingan yuzaki va chuqur sezgi impulslari analizatorlarning po'stloqdagi markaziga quyidagi 3 neyronli yo'l orqali yetib boradi:

- **Birinchi neyron.** Yuzaki va chuqur sezgi yo'llarining 1-neyroni spinal tugunda yotadi.
- **Ikkinchi neyron.** Yuzaki sezgining 2-neyroni orqa miya-ning orqa shoxida, chuqur sezgining 2-neyroni uzunchoq miyada yotadi.
- **Uchinchi neyron.** Yuzaki sezgining ham, chuqur sezgining 3-neyroni talamusda yotadi.

Demak, yuzaki va chuqur sezgilarning birinchi va uchinchi neyronlari bir xil joyda, ya'ni spinal tugun va talamusda joylashgan.

**Manba: © Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021**

**© Ibodullayev ensiklopediyasi © [www.asab.uz](http://www.asab.uz)**

